

O'ZBEK OILALARIDANIZO VA AJRRIMLARNINGYUZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972378>

Yunusova Go'zal Sultonovna

Faro'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti, (PhD),

Isroilov Abrorjon Axatjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya.

Maqolada, O'zbek oilalarida nizo va ajrimlarning yuzaga kelishi, er-xotin munosabatlarining buzilishining psixologik omillari to'g'risida, psixolog olimlar ilmiy tadqiqotlaridan na'munalar keltirilgan bo'lib mavzu bo'yicha xulosalar berilgan

Kalit so'zlar.

oila, nizo - janjal, ajrimlar, xulq, axloqiy buzilishlar, ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim va tarbiya.

Аннотация. *В статье о возникновении конфликтов и разногласий в узбекских семьях, психологических факторах распада супружеских отношений приведены примеры из научных исследований психологов, даны выводы по теме.*

Ключевые слова.

семья, конфликт-ссора, решения, поведение, моральные нарушения, социально-психологические факторы, воспитание и обучение.

Annotation.

In the article about the emergence of conflicts and disagreements in uzbek families, the psychological factors of the breakdown of marital relations, examples are given from scientific research by psychologists, conclusions are given on the topic.

Key words.

family, conflict-quarrel, decisions, behavior, moral violations, socio-psychological factors, education and training.

Kirish. Har bir oilaning soo'lom bo'lishi, shu muhitda shakllanayotgan, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida davlat taraqqiyotini ta'minlovchi inson omiliga bog'liq.

Chunki, nosoo'lom muhitli, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz, shavqatsiz, zolim, xudbin, yurt manfaatlariga zid, tashqi kuchlar

ta'siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti rivojiga salbiy ta'sir qiluvchi odam bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham so'ngi yigirma yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, bizning respublikamizda ham mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yoshlarni oilaviy hayotda bo'ladigan muammolar, qonuniyatlar haqida ilmiy tasavvurlar bilan tarbiyalash, yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini o'rgatish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Shunday bo'lsada, ko'pgina o'zbek oilalarida ham turli masalalarda muammolar yuzaga kelishi uchrab turadi. Oilaviy nizolar azaldan olimlar tomonidan o'rganib kelingan muammolardan biri. Oilaviy nizolar yechimi ustida ko'pgina pedagoglar, psixologlar va boshqa insonshunoslik fanlari vakillari tadqiqot olib borganlar va bormoqdalar. Buning isboti tarzida psixologlar tomonidan yaratilgan va amalda qo'llaniladigan manbalarni (adabiyotlar, tadqiqot ishlarini o'z ichiga olgan ilmiy monografiyalar, qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar) misol qilib keltirish mumkin. Ular asosida oiladagi nizolar, muammolar o'rganiladi, tashxislanadi va shu asosda o'rganilgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'riladi.

Asosiy qism. Oilaviy nizolar oiladagi o'zaro munosabatlarning noto'g'ri yo'lga qo'yilishi bilan belgilanadi. Bunday munosabatlar ko'proq er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklarni, chiqisha olmaslik, muomalasizlik, o'zaro hurmatning yo'qligi, oiladagi obro' kabilarda ko'rinadi. Shu bilan birga ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, qaynona-kelin munosabatlarida kelisha olmaslikdagi holatlar, oilaviy munosabatlarda kelisha olmaslikdagi holatlar oilaviy nizolarning eng katta qismini tashkil etishi mumkin.

Oilaviy nizolar omillari sifatida qiyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- Moddiy yetishmovchilik. Oilani moddiy jihatdan ta'minlay olmaslik er-xotin munosabatlarini yomon ahvolga solib qo'yadi, hozirgi kunda ko'pgina ajrimlarning sababi moddiy yetishmovchilik degan xulosalar mavjud. Bunday muammolar farzandlar tarbiyasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi janjallarning sababini tushunib yetgan bolada ota-onaga bo'lgan munosbat o'zgaradi va bu holat ham yana bir nizoni keltirib chiqaradi;

- Oilaning ko'p bo'g'inliligi (ikki va undan ortiq avloddan iborat oilalarning birga yashashi). Oiladagi o'zaro ikir-chikir, chiqisha olmasliklar ko'pchilik bilan birga yashashdan kelib chiqadi. Qaysiki, oilada o'ziga xos sistemalashtirilgan

tizimning mavjud bo'lmashligidan yoki mavjud tizimga oilaning ba'zi bir a'zolari bo'ysunmasligidan kelib chiqadi.

- Er-xotin o'rtasidagi intim munosabatlar. Ushbu ko'rinishdagi nizolar Sharq mutafakkirlari asarlarida ham o'z aksini topgan. Bu munosabatlarga sevgi, do'stlik, dushmanlik, yolo'zlik kabilarni kiritish mumkin. Biroq intim muloqotlar nafaqat istalgan, balki, istalmagan bo'lishi ham mumkin. Bu muloqotlar hamdardlikka, o'zaro qo'llab-quvvatlash, dalda berish, bir-birini tushunishga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradi. Er-xotin o'rtasida ushbu muloqotlar anglanib to'g'ri munosabat bildirilmasa, bu nizolar kelib chiqishiga asos bo'ladi.

- Oila a'zolarining sog'lom turmush tarziga amal qilmasligi. Otaning yoki onaning, yomon salbiy odatlarga (ichish, chekish, giyohvandlik, yomon yo'lga kirish) odatlanishi hamda oiladagi turli kasalliklarning avj olishi masalalari ham oilada yetarlicha nizolarni keltirib chiqaradi. Bu holatda farzand mahalla-ko'y, o'rtoqlari oldida ota yoki onasining hatti-harakatlaridan orlanib, o'zablanadi va bu oilada nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Boshqa holatda esa "qush uyasida ko'rganini qiladi" iborasi amal qiladi. Har ikki holatda ham er-xotin o'rtasidagi nizolar ikkinchi bir nizo ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizoni keltirib chiqaradi.

- Oilaning biarxatligi (tenglik). Er-xotinlar hayotidagi tenglik huquqi barchaga ham birdek ma'qul kelavermaydi. Ayrim oilalardagi ayollarni kamsitish, mensimaslik, odam o'rnida ko'rmaslik, fikrlarini inobatga olmaslik holatlari nizolarni keltirib chiqaradi, shu bilan birga ayollarning oilada hukmronlikka intilishi ham nizolarga olib keladi.

- Er-xotindan birining oilaviy masalalarga nisbatan yoki bir-biriga nisbatan befarqligi. Bunga bolani yoshligidan mehnatga o'rgatilmagani, uyro'zgor yumushlariga jalb qilinmagani sabab bo'lsa, bir-biriga befarqligiga o'rtada uchinchi shaxsning borligi yoki temperament va xarakter xususiyatlari bilan boo'liq bo'lishi mumkin.

- Yashash sharoitining noqulayligi. Deyarli xotin tomonidan ko'tariladigan masala bo'lib, ko'pincha uy yumushlarini bajarishdagi noqulay shart-sharoit, o'rin-joy masalalari bilan boo'liq bo'ladi.

- Ota-onalarning no'rin aralashuvi. Kelinga uy tutishdagi, bola tarbiyasidagi, kiyinish va muomala madaniyati borasida qaynona tomonidan beriladigan maslahat va ko'rsatmalar sabab bo'lsa, kuyovga xotinni asrab avaylash, uy yumushlarida yordam berish borasidagi qaynona nasihatlar va shunga o'xshash vajlar oilada nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Muhokama. Farzandsizlik er-xotin o'rtasidagi muhabbat barqaror bo'lganda, ajralish holatigacha bormasligi mumkin, ammo nizolar tez-tez takrorlanib turadi.

Tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, vaziyatga qarab, bu ko'rsatkichlar ba'zilar da sabab, ba'zilar uchun bahona vazifasini o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar qanchalik bir-birini yaxshi tushunsa, ular oiladagi o'z vazifalarini sidqidildan bajarsa, ba'zi narsalarga ko'z yuma olishni bilsa, o'z holiga shukr qila bilsa, bir-biridan kamchilik o'rniga fazilat axtarsa va bir-biridan mehrini qizg'anmasa, yuqoridagi omillar oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi. Yoshlar o'rtasidagi munosabat qanchalik noxush bo'lsa, bu bahonalar shunchalik kuchli va salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda bu holatlar ajralishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin.

Hozirgi kunda jamoatchilik ajralish hodisasini 3 holatda inkor eta olmayapti. Bular:

1. Farsandsizlik;
2. Ayol xiyonati;
3. Er-xotinlardan birining ruhiy kasallikka chalinishi

Boshqa holatlarda esa mahallalarda tashkil etilgan yarashtiruv komissiyalari, "Oila" markazlari, ayollar maslahatxonalarini tomonidan oiladagi nizolar tahlil qilinib, oila mustahkamligini saqlash va ajralishlardan asrab qolishga ko'mak berilmoqda.

Umuman, oilada er-xotin o'rtasidagi nizolarning yuzaga kelishi va rivojlanishi ma'lum bir nosoo'lom psixologik muhit asosida yuzaga kelishi mumkin. Shu ma'noda nizolarning ham o'z diapazoni bor. Ba'zan nizoli vaziyatlarda er yoki xotin yengib chiqish uchun hamma imkoniyatini ishga soladi, uchinchi shaxsni aralashtiradi. Bunday nizoli vaziyat esa ma'lum bir ijtimoiy psixologik muhitni yuzaga keltiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki;

1. Er-xotin munosabatlarining ko'ngildagidek bo'lishiga ijtimoiy-psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar va ular haqida aniq va asoslangan tushunchalarning yo'qligi halaqit qiladi.

2. Bir oila uchun meyorda bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi, yoki bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo boshqa oilaning munosabatlarida jiddiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilishi mumkin.

3. Jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan soo'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida oilaviy muammolar yechimi katta ahamiyatga ega. Bunda er-xotinlar oilaviy hayotda yuzaga kelishi muqarrar bo'lgan nizolarni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, o'zaro kelishgan holda ziddiyatlarni

bartaraf etsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit yosh avlod ongida ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дружинин В.Н. Психология семи: 3-е изд. – СПб: Питер, 2008
2. Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari // Psixol.f.n. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-T., O'zMU 2004 – 24 b.
3. Шоумаров Ф.Б., Соғинов Н.А. Эр-хотин орасидаги низоларнинг этнопсихологик хусусиятлари. /Ўзбек оиласининг этнопсихологик хусусиятлари. Илмий ишлар тўплами. –Т., 1993. – Б. 11-25.
4. Yunusova G.S. //То'liq va noto'liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri// Psixol.f.d. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-T., O'zMU 2019.
5. Юнусова Гузаль Султановна, Исроилов Абдоржон Ахатжон угли //ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ИССЛЕДОВАНИЯХ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ// Образование и инновационные исследования 2022 год. № 5. 284-287 стр.
6. G.S.Yunusova //THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN// The Way of Science. 2021. № 6 (88). 84-87 pages.
7. Yunusova G. S. //THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN// The Way of Science. 2014. С. 84.
8. Юнусова Гузал Султоновна, Турдиматова Елноза Эркинжоновна //РОЛЬ СЕМЬИ В ПРОЯВЛЕНИИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ// Образование и инновационные исследования. 2022 год № 11. 378-381 стр.
9. Юнусова Гузаль Султановна. //Развитие воображения молодежи и подростков, воспитывающихся в благополучных и неблагополучных семьях// Theoretical & Applied Science. № 6 (2).2013. 91-94 pages.
10. Юнусова Гузаль //Особенности взаимоотношений родителей с детьми-подростками в полных и неполных семьях// Молодой ученый. 2015. № 13 (93). С. 757-760.
11. Yunusova Guzal Sultanovna //THE INFLUENCE OF THE MOTHER'S PERSONALITY IN RAISING THE SPIRITUAL CONSCIOUSNESS OF

ADOLESCENTS// American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Jun 9, 2022. 5, 111-115.

12. Yunusova Guzal Sultanovna //PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF CRIME PREVENTION AMONG TEENAGERS (FAMILY ASPECT)// American Journal of Interdisciplinary Research and Development, Oct 22, 2022. 9, 266-273 pages.

13. Гўзал Султоновна Юнусова, Исроилов Аброржон Ахатжон ўгли //ЎЗБЕКИСТОНЛИК ОЛИМЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР МУАММОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ// Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022 йил № 5. 284-287

14. Г.С.Юнусова //ВЛИЯНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ГОТОВНОСТЬ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ДЕТЕЙ// The Way of Science. 2018. № 2 (48). 77-79 pages.

15. Г.С.Юнусова //РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ПО ОТНОШЕНИЮ К ПОДДЕРЖКЕ И ОДОБРЕНИЮ У ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В ПОЛНЫХ И НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ// Социальные науки и общественное здоровье: теоретические подходы, эмпирические исследования, практические решения: материалы III международной научно-практической конференции 20-21 апреля 2013 года. Прага. 83-87 стр.

16. Юнусова Гўзал Султоновна //ЎСМИР ЁШЛИ БОЛАЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА МАЪНАВИЙ ЖИҲАТДАН ТАЙЁРЛАШДА ОНА ШАХСИНИНГ ТАЪСИРИ// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center. Volume 3. Issue 5, Part 3. May 2023. 69-75 pages.

17. Pulatova Gulnoza Murodilovna, Muhammadjonov Jahongir Zokirjon o'g'li //5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING ANAMIYATI// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center. Vol 3. Issue 5, Part 3. May 2023. 48-58 pages.

18. L.Yu.Abdukadirova //WHAT DIFFICULTIES DOES A STUDENT WITH DISABILITIES FACE WHEN STUDYING AT A UNIVERSITY IN THE CONTEXT OF THE DIGITALIZATION OF SOCIETY// European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 4 No.5, May 2023. 18-20 pages.

19. Наталья Юрьевна Стоюхина, Абдукадилова Лаура Юльбарсовна //ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИГРЫ В КУКЛЫ// Academic Research in Educational Sciences. Volume 3. Issue 6. 2022. 137-146 pages.

20. Topvoldieva Mirzajonova Eleonora¹, Abdukadirova, Yulbarsova Laura // Actuality of psychological support in work with children from the risk group // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Volume 12. Issue 6. 2022. 51-56 pages.

21. Abdukadirova Laura Yulbarsova // Actual questions of psychological research of laziness among pupils // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. Vol. 12. Issue 5. 2022. 318-323 pages.

22. Abdukadirova Laura Yulbarsova // SOCIO-PSYCHOLOGICAL SUPPORT OF FEMALE STUDENTS WITH CHILDREN AS A FACTOR IN THE TRAINING OF HIGHLY QUALIFIED PERSONNEL IN UNIVERSITIES // European Scholar Journal (ESJ). Vol. 2. No.6, June 2021. 110-114 pages.

23. Stoyukhina Natalya Yurevna, Abdukadirova Laura Yulbarsova // PSYCHOLOGICAL RESEARCH BY EARLY TWENTIETH-CENTURY SCIENTISTS ON THE ROLE OF THE DOLL IN THE DEVELOPMENT OF THE IMAGE OF MOTHERHOOD IN CHILDREN // International Journal of Early Childhood Special Education. Volume 3. Issue 14. 2022. 318-323.

24. L.Yu.Abdugodirova, Aziza Sobirova // IQTIDORLI O'QUVCHILARDA SAMARALI KOPING XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MAMLAKAT INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022. 1357-1363 pages.

25. Абдукадилова Лаура Юльбарсовна // АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ СЕМЕЙНЫХ СТУДЕНТОК В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА // ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. №6. 2021. 38-45 стр.

26. Abdukadirova Laura // THE MAIN APPROACHES TO THE STUDY OF THE DIFFICULT LIFE SITUATION IN SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019. 781-789 pages.

27. Abdukadirova Laura Yulbarsova, Mirzajonova Eleonora Topvoldieva // The importance of reading competencies in the context of the "industry 4.0" industrial revolution // ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. Volume 11, Issue 1, 2021. 205-210 pages.

28. Toshboltayeva Nodira, Mamajonova Shoxista, Pulatova Gulnoza, Karimianova Yoqutkhon, Djalolova Mohinur // Exploring the development of creative thinking in small school students // International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). Vol 14, Issue 02. 2022. 5701-5707 pages.

29. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14 | November, 2022. 14-17 pages.

30. A.R.Abdullayeva //THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 670-674 pages.

31. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3. March, 2023. 43-50 pages.

32. Абдулаева Арофат Рустамовна //ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ// Uzbek Scholar Journal. Volume-06, July, 2022. 26-29 pages.

33. А.Р.Абдуллаева, М.Р.Абдукаримова //ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 14-SON. 20.12.2022. 1132-1138 betlar.

34. Рустамовна А.А., //ФАКТОРЫ С. П. ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ// Зона конференций. 2022. 43-45 стр.

35. Rustamovna, A. A. //BO'LAJAK HARBIY KADRLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILAVIY MUHIT TA'SIRINI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI// JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Vol.7. Issue-2. 2022. 35-43 pages.

36. Khalimakhon Ganieva Akhmadkhonovna, Abdullaeva Arofat Rustamovna, Zakirova Dilfuzaxon Saydolimovna //PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH// International Journal of Early Childhood Special Education. 3(14) 2022.

37. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23-January, 2023. Canada, Ottawa. 136-140 pages.

38. СОЛИЕВ ФАРХОДЖОН СОДИКОВИЧ, АБДУЛЛАЕВА АРОФАТХОН РУСТАМОВНА, ДЖУХОНОВА НОХИДА ХАЁТЖОНОВНА

//ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЭТНОЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ//
Материалы Международной заочной научно-практической конференции:
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА.
Екатеринбург, 2019. 334-339 стр.

39. Рустамовна А.А. //СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ// Зона конференции. 2022.

40. Abdullaeva Arofat Rustamovna //SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE FAMILY ENVIRONMENT IN THE PATRIOTIC UPBRINGING OF FUTURE MILITARY PERSONNEL// International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland. January 10th 2022. 43-45 pages.

41. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*. Vol. 2 No. 13, 2023. 129-133. pages.